

AQL, IDROK, TAFAKKUR

Kenjayeva Charosxon Shamsiddinovna

Surxondaryo viloyati, Termiz shahar,

15-maktab 11-sinf o'quvchisi

Hech o'ylab ko'rganmisiz kuzatuvlar qanday natija beradi?

Endi tug'ilib o'sib borayotgan chaqaloqlarni ko'rib tafakkur qilaman...Ularning harakati meni lol qoldiradi. Eng qizig'i ular katta katta orzular qiladilar va unga erishishga qo'rqmasdan olg'a qadam bosadilar. O'ylab qolaman axir shu kattalar ham bir paytlar bola ediku, nega insonlar ulg'aygani sari orzu qilmay qo'yadi yoki nimadir qilib ko'rishdan qo'rqadilar. Yosh bolalarga nazar solsak ular juda ko'p narsalarni savol berish orqali o'rganadi. U nima? Bu kim va hokazo.Hattoki ular gapira olish uchun atrofdagi tilni bemalol xato qilsa ham qo'llaydi va shu tariqa o'rganadi. Chunki ular tortinchoqlik, qo'rquv kabi tuyg'ularga qiyo ham boqmaydilar. Ularning diqqat e'tiborlari faqat go'zallikda bo'lganligi sababli dunyoni mo'jibaviy ko'rishadi. Kattalar uchun vaqt tez, kichiklar uchun esa sekin o'tayotgandek tuyiladi. Inson ulg'aygan sari tashqi ko'rinishi o'zgarsa ham ko'ngil doimo yosh bo'lishini ya'ni uning ichida bolalik yashashini, umr juda qisqa ekanligini tushunib yetadi.

Shunday ekan muammolar girdobida yashashdan ne foyda...

Aql kuchdan qudratliroq. Chunki aql bilan qilingan ish har doim o'z samarasini korsatadi . Kuch bilan muamoni yechib bolmaydi. Aql bilan baland marralarga erishsa boladi. Aqlli inson do'stlarini, jamiatni , oila a'zolarini oldida hurmatga ega boladi.

Idrok haqida so'z ochar ekanman buni sizga bir qancha misollar orqali tushuntirib beraman.Idrok bu bir so'z bilan aytganda ma'lumotni qabul qilib, qayta ishlash jarayoni.

Masalan ustozingiz sizga bir mavzuni tushuntirib bersa, har bir kishi u mavzuni tushuna olguncha har xil o'zlashtiradi.

So'zim oxirida shu xulosaga keldim. Bizning kayfiyatimiz yaxshi bo'lsa ham, yaxshi bo'lmasa ham, vaqtimizdan unumli foydalansak ham foydalanmasak ham bu umr baribir o'tadi.....